

## **Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik berish**

Bu bilan men, keyinchalik – «Shaxsiy Ma'lumotlar Subyekti», 27.07.2006 da qabul qilingan «Shaxsiy ma'lumotlar haqidagi» (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) № 152-FZ Federal qonuni talablarini bajarish uchun, mustaqil tarzda, o'z xohishim bilan va manfaatim yo'lida, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq tarzda tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan, *OGRN(ADQR-Asosiy Davlat Qayd Raqami) 1034316534394*, *yuridik manzili: Moskva sh. 121614, Krilatskiye Xolmi ko'ch., 9 korp. 30 uy.* yuridik shaxs «AVVA RUS» AJga ro'yxatdan o'tish paytida har qaysi sayt(sahifalarning) filtrum.uz (keyinchalik-«Sayt» yoki «Saytlar») bevosita aloqa xizmatining veb-shaklini to'ldirish yo'li bilan ko'rsatilgan va sayt yordamida yo'naltirilgan (to'ldirilgan) har qanday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beraman.

Men shaxsiy ma'lumotlar deganda menga, Shaxsiy Ma'lumotlar Subyekti sifatida tegishli bo'lgan har qanday ma'lumotni tushunaman, shu jumladan, mening familiya, ism, sharifim, manzirim, ma'lumotim, kasbim, bog'lanish uchun ma'lumotlarim (telefon, faks, elektron qutim, pochta manzirim), sog'lig'imning, Saytda taqdim qilingan mavzular bilan bog'liq bo'lgan holatlari haqida ma'lumotlar va boshq. Ma'lumotlarni qayta ishlash deganda men, ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, jamg'arish, aniqlashtirish, yangilash, o'zgartirish, ishlatish, tarqatish, yetkazish, shu jumladan boshqa davlatlarga ham, qiyofasizlashtirish, chegaralash, yo'q qilish, muddatsiz saqlash, va shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq har qanday boshqa harkatlarni (muomala) tushunaman.

Shaxsiy Ma'lumotlar Subyektiga tegishli shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishi, faqatgina Shaxsiy Ma'lumotlar Subyekti tomonidan saytlar orqali yuborilgan elektron shakldagi xatlar, xabarlar, so'rovlarni qayd qilish, o'rganib chiqish va keyinchalik Shaxsiy Ma'lumotlar Subyektiga faqatgina ma'lumot beruvchi xususiyatga ega bo'lgan va umuman olib qaraganda hech qanday darajada tibbiy maslahat, xulosa va boshq. bo'lmagan, qayta ishlash javoblari va xulosalarini yuborish maqsadida amalga oshiriladi.

Shaxsiy ma'lumotlar subyekti tomonidan saytda joylashgan veb-shakl orqali elektron xat yuborilgan sana, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik berilgan sana deb hisoblanadi. Shaxsiy ma'lumotlar subyekting, Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tarzda, avtomatlashtirilgan

vositalar yordamida va/yoki avtomatlashtirilgan vositalarni ishlatmagan holda, amalga oshirilishi mumkin.

«AVVA RUS»AJ shaxsiy ma'lumotlardan g'ayriqonuniy yoki tasodifiy foydalanish, ma'lumotlarni yo'q qilish, o'zgartirish, cheklash, nusxa olish, taqdim qilish, tarqatish imkoniyatlaridan himoya qilish uchun kerakli huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi yoki ularning qabul qilinishini ta'minlaydi, shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan boshqa qonuniy bo'lmagan harakatlardan himoyalaydi, hamda Shaxsiy ma'lumotlar subyektining, shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlash bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. «AVVA RUS»AJ Shaxsiy Ma'lumotlar Subyektining, shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash uchun subpodryadchi (yollanma) korxonalarini jalb etishga, hamda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun o'z affilangan shaxslariga, yollanma korxonalar va affilangan shaxslar tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni sir tutish haqidagi shartining qabul qilinishini ta'minlagan holda berib yuborishga haqlidir. «AVVA RUS»AJ Shaxsiy Ma'lumotlar Subyektining shaxsiy ma'lumotlarini tibbiyot, farmakologiya sohasida faoliyat yurituvchi uchinchi shaxslar, ilmiy-tekshirish institutlari va tashqi ekspertlarga, bu shaxslar tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni sir tutish bo'yicha tegishli majburiyatlarni qabul sharti bilan Shaxsiy Ma'lumotlar Subyektini tomonidan Saytdagi veb-shakl orqali yuborilgan xabarlardagi mazmun va faktlarni o'rganish, tahlil qilish maqsadida yuborishga haqlidir.

Shaxsiy ma'lumotlar «AVVA RUS»AJda Subyektini tomonidan, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan roziligini qaytarib olish haqida, tegishli tarzda, yozma ariza kelib tushgan paytgacha yoki bevosita aloqa shaklini yuborilgan vaqtdan boshlab 5 (besh) yil muddat ichida qayta ishlanadi. Bu muddat o'tgandan so'ng shaxsiy ma'lumotlar 12 kalendar (taqvimiy) oydan, oshiq bo'lmagan muddat ichida yo'q qilinadi.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilik Foydalanuvchi tomonidan, [info@filtrum.uz](mailto:info@filtrum.uz) elektron qutisi manziliga, muvofiq tarzda erkin shakldagi ariza yozish yo'li bilan yoki Moskva sh. 121614, Krilatskie Xolmi ko'ch., 9 korp. 30 uy manziliga muvofiq tarzda oddiy yozma shaklda ariza yozish yo'li bilan chaqirib olinishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilik Shaxsiy ma'lumotlar subyektini yoki uning vakili tomonidan chaqirib olingan holatda «AVVA RUS»AJ 27.07.2006 da

qabul qilingan «Shaxsiy ma'lumotlar haqidagi» № 152-FZ Federal qonundagi 11 moddaning 2 qismi, 10 moddaning 2 qismi, 6 moddaning 1 qism 2-11 bandlarida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lsa, shaxsiy ma'lumotlar subyektining rozilgisiz, qayta ishlashni davom ettirishga haqlidir.

Men shundan xabardormanki:

1. Ushbu, saytdagi (saytlardagi) veb-shakl orqali xabar yuborish vaqtida ko'rsatilgan mening shaxsiy ma'lumotlarimni qayta ishlashga berilgan, rozilik «AVVA RUS»AJ Sayt(saytlardagi) veb-shakl orqali xabar yuborilgan paytdan boshlab 5(Besh) yil amal qiladi, «AVVA RUS»AJ mening shaxsiy ma'lumotlarimni muddatidan oldin qayta ishlashni to'xtatish haqida, bildirish olgan holatda esa-bu bildirishnoma topshirilgan kundan boshlab;

2. Rozilik men tomondan erkin shakldagi yozma ariza asosida chaqirib olinish mumkin;

3. Uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini ularning rozilgisiz taqdim qilish, Rossiya Federatsiyasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tarzda javobgarlikka olib keladi.